

ASOSIY KO'RSATKICHLAR

- Oy yakunlariga ko'ra, savdolar umumiy hajmi 1,05 trln so'm (\$88,04 mln)ni tashkil etib, 2024-yil noyabr oyiga nisbatan 13,74 trln so'mga yoki 14 barabarga kamaydi.
- Shu bilan birga, 629,21 mlrd so'm (\$52,55 mln)ni yoki 59,81% birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan tuzilgan bitimlarni tashkil etdi. Savdo hajmining qolgan qismi listingdan tashqari savdo maydonchasi (LTSM) bitimlariga .
- Birja savdo maydonchalaridagi bitimlarning umumiy soni 33 050 tani tashkil etib, 2024-yilning noyabr oyiga nisbatan 6 076 taga yoki 15,53%ga kamaydi. Shundan 28 927 ta bitim kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan, 4 123 ta bitim esa listingdan tashqari savdo maydonchasida amalga oshirilgan.
- O'rtacha kunlik savdo hajmi 52,60 mlrd so'm (\$4,40 mln)ni, o'rtacha kunlik bitimlar soni esa 1 653 tani tashkil etdi.
- Oy yakuniga ko'ra, UCI indeksi 1,7 foizga oshib, 719,87 punktini tashkil etdi.

BOZOR SHARHI**AKSIYA BOZORI**

Aksiyalar bozorida savdolar hajmi 135,29 mlrd so'm (\$11,29 mln)ni tashkil etib, 2024-yilning noyabr oyiga nisbatan 14,29 trln so'mga kamaydi. Shu o'rinda, savdolarning asosiy hajmi (62,43 mlrd so'm) Nego Board platformasiga to'g'ri keldi.

Aksiyalar bozorida savdolarning o'rtacha kunlik hajmi 6,76 mlrd so'm (\$564,51 ming)ni, bitimlarning o'rtacha kunlik soni esa 1 350 tani tashkil etdi.

Oy yakuniga ko'ra, aksiyalar bozorining kapitallashuvi 4,64 trln so'mga yoki 1,7 foizga oshib, 275,26 trln so'm (\$23,13 mlrd)ni tashkil qildi. Erkin muomalada bo'lgan (free float) aksiyalarning bozor kapitallashuvi 4,04 trln so'm (\$339,70 mln)ni tashkil etdi.

Oy yakuniga ko'ra, 93 ta aksiya emitentlarining 135 ta instrumentlari Birja kotirovkalash varag'ida qayd etildi.


Aksiyalar bozorining asosiy ko'rsatkichlari

		11/21	11/22	11/23	11/24	11/25
Savdo hajmi	<i>mln so'm</i>	142 185	231 344	12 613	14 427 538	135 291
O'rtacha kunlik savdo hajmi	<i>mln so'm</i>	6 463	10 516	573	687 026	6 765
Bitta bitimning o'rtacha hajmi	<i>mln so'm</i>	15	32	0,3	624	5
Bitimlar soni	<i>dona</i>	9 338	7 291	36 119	23 129	27 001
O'rtacha kunlik bitimlar soni	<i>dona</i>	424	331	1 642	1 101	1 350

UCI INDEKSI

Oy yakuniga ko'ra, UCI indeksi 1,7 foizga oshib, 719,87 punktni tashkil etdi.

2025-yil noyabr oyi uchun UCI indeksi grafigi



OBLIGATSIYALAR BOZORI

Korporativ obligatsiyalar bozorida savdolar hajmi 493,92 mlrd so'm (\$41,26 mln)ni tashkil etib, 2024-yilning noyabr oyiga nisbatan 242,07 mlrd so'mga yoki 96,12%ga oshdi.

Obligatsiyalar bozorida savdolarning o'rtacha kunlik hajmi 24,70 mlrd so'm (\$2,06 mln)ni, o'rtacha kunlik bitimlar soni esa 96 tani tashkil qildi.

Birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan obligatsiyalarning bozor qiymati 2,05 trln so'm (\$172,14 mln) ni tashkil etdi.

Oy yakuniga ko'ra, 12 ta obligatsiya emitentlarining 24 ta instrumentlari birja kotirovkalash varag'ida qayd etildi.

Obligatsiyalar bozorining asosiy ko'rsatkichlari

		11/21	11/22	11/23	11/24	11/25
Savdo hajmi	<i>mln so'm</i>	3 001	553	3 686	251 850	493 923
O'rtacha kunlik savdo hajmi	<i>mln so'm</i>	136	25	168	11 993	24 696
Bitta bitimning o'rtacha hajmi	<i>mln so'm</i>	750	61	37	1 058	256
Bitimlar soni	<i>dona</i>	4	9	99	238	1 926
O'rtacha kunlik bitimlar soni	<i>dona</i>	0	0	5	11	96

LISTING

Oy oxirida birja kotirovkalash varag'ida 103 emitentning 159 ta instrumenti mavjud edi.

LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI (LTSM)

Oy yakuniga ko'ra, Birjaning listingdan tashqari savdo maydonchasida 4 123 ta bitim tuzilib, o'tgan yilning noyabr oyiga nisbatan 7,58%ga kamaydi.

Savdolar hajmi 422,83 mlrd so'mni (\$35,49 mln)ni tashkil etib, o'tgan yilning noyabr oyiga nisbatan 6 baravarga oshdi.

84 ta emitentning qimmatli qog'ozlari bitimlar obyekti bo'ldi.